Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

Xulosa sifatida bizningcha aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish uchun har bir korxona ularning ishlab chiqarish va muomalada bo‘lish muddatini qisqartirishga erishishi, mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yilarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Ortiqov. A “Sanoat iqtisodiyoti” T.: TDIU, 2004y 186-bet.
3. Mahmudov. E “Korxona iqtisodiyoti” T.: TDIU, 2004y 125-bet.
4. Abdukarmov.B.A “Korxona iqtisodiyoti” T.: “Fan” 2005 y. 161-bet.
5. Abdukarimov B.A, Bektemirov B.A «Korxona iqtisodiyoti» T.: «Fan va texnologiya» 2013 y 199-bet.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASH MASALALARI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIUAF “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Shakirjonov Azizbek Shavkat o‘g‘li
TDIUAF “Bank ishi audit” yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilandi. Ushbu faoliyatning rivoji uchun puxta qonunchilik siyosati, mustahkam huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilayotganini va ushbu chora-tadbirlar kambag‘allikni qisqartirishga yordam bermoqda. Kambag‘allikni qisqartirish davlat tomonidan amalga oshirilayotgani, turli yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu kabi muhim islohotlar natijasida 2021 yil yakuniga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yalpi ichki mahsulotda 58,9 foiz, sanoat mahsulotlari hajmida 40,6 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida 98,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida 35,8 foizga etdi. Aholining mehnat bilan band qismining 77,9 foizi mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda. Kambag‘allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirish, kichik biznes uchun qulay ishchan muhitni yaratish, tartibga solishning pul-kredit mexanizmlaridan samarali foydalanish, uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish borasidagi imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Published: 17.05.2024
Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Shakirjonov Azizbek Shavkat o‘g‘li (2024). O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash masalalari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/96
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kambag‘allik odamlarning moddiy ta’minlanmaganligining o‘ziga xos holati, qachonki shaxsning daromadi yoki oilalar hayoti uchun ijtimoiy zarur bo‘lgan iste’molni saqlab qolishga imkon bermaydi. Aholining bunday qatlami kambag‘allar deb ataladi.

2020 yil 26 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda 2021 yil 3 dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan, 1 yanvar 2022 yildan har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta’sis etildi. Hokim yordamchilari tizimining joriy qilinishi, mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurashishga qaratilgan siyosatda keskin burilish yasaydi.

Yurtimizda maxsus mobil ilova yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali faoliyat turini ko‘rsatgan holda ro‘yxatdan o‘tadi. Ro‘yxatdan o‘tganligini to‘g‘risida tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) shakllanadi. Endi vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini berish tartibi yo‘qoladi. Juda ko‘pchilik fuqarolar o‘zini band etib, ish stajlari yo‘qligi sabali pensiya yoshiga etganlarida pensiyaga chiqa olmay yurishgan edi. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar 2020 yil uchun bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi (111500 so‘m edi, hozirgi kunda bu summa yanada oshgan) hajmida ijtimoiy soliqni to‘laydi hamda ushbu summa to‘liqligicha budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi. Misol uchun, mardikor - xonadonlarda er ag‘darish, yuk tashish kabi ishlar bilan shug‘ullanadigan shaxs, oilasi kambag‘al. Kelajakda qariganda jismonan mehnat qobiliyatini yo‘qotadi, ishlay olmaydi, yana yordamga muhtoj oila bo‘lib qolaveradi.

Quyidagi 1-jadvalda yurtimiz hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi va ishsizlar soni keltirilgan.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni[10]

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faollik darajasi[2)], foizda	Aholining bandlik darajasi[3)], foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		Iqtisodiyotda bandlar	Ishsizlar[1)]			
2021						
O‘zbekiston Respublikasi	14910,3	13438	1472,3	69,1	66,4	9,8
2020						
O‘zbekiston Respublikasi	14797,4	13236,4	1561,0	73,8	66,0	10,5
2019						
O‘zbekiston Respublikasi	14876,4	13541,1	1335,3	75,0	68,1	9,0
2018						
O‘zbekiston Respublikasi	14641,7	13273,1	1368,6	74,3	67,4	9,3

[10] O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari

Bu erda:

1) 2000-2006 yillar Mehnat organlarida ro‘yxatga olingan, ishsiz deb e’tirof etilganlar, 2007 yildan boshlab ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi;

2) Iqtisodiy faol aholi sonini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati;

3) Band aholi sonini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati

Yuqoridagi 1-jadvalda respublikamizda iqtisodiy faol aholi soni 2021 yilda jami 14910,3 ming, 2020 yilda 14797,4 ming, 2019 yilda 14876,4 ming, 2018 yilda 14641,7 ming kishini tashkil etgan. Jumladan, iqtisodiyotda bandlar 2021 yilda 13438 ming, 2020 yilda 13236,4 ming, 2019 yilda 13541,1 ming, 2018 yilda 13273,1 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, ishsizlar soni 2021 yilda 1472,3 mingta, 2020 yilda 1561 mingta, 2019 yilda 1335,3 mingta, 2018 yilda 1368,6 mingta bo‘lgan.

Shuni aytish mumkinki, ishsizlikka qarshi kurash, aholini ish bilan ta’minlash kambag‘allikka qarshi kurashning asosiy yo‘llaridan biridir.

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kam ta’minlangan aholi ulushi*
(uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan), foizda[11]

	Yillar				
	2017	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**
Kam ta’minlangan aholi ulushi	11,9	11,4	11,0	11,5	11,3

*Jahon Banki tavsiyasiga ko‘ra kam ta’minlanganlik darajasi ko‘rsatkichi kunlik 2100 kkal dan kelib chiqib hisoblangan

2-jadvalda esa ko‘rinib turganidek, O‘zbekistonda kam ta’minlanganlar ulushi 2021 yilda 11,3 % ni, 2020 yilda 11,5 % ni, 2019 yilda 11 % ni, 2018 yilda 11,4 % ni, 2017 yilda 11,9 % ni tashkil etgan. Bu esa Jahon banki tavsiyasiga asosan, kunlik 2100 kkal dan kelib chiqib hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Восколович Н.А. Экономика платних услуг: уче.пособ. М.: «Экономика», 2007. -366 стр.

2. Ochilov I.S. “Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari”//Iqtisodiyot va servis, -6/ 2019

3. Xamrayeva S.N. va Samiyeva G.T. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik/ Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2022. –460 bet.

[11] O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari